
BUGUN XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING 64-SESSIYASI BO‘LIB O‘TDI

Unda sessiya kun tartibiga kiritilgan masalaga dahldor tashkilot va muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Sessiya ishini Toshloq tumani hokimi, xalq deputatlari tuman Kengashi raisi Abduqaxxor Djurabayev ochdi va olib bordi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi.

Tumanda investision loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlar, jinoyat ishlari bo‘yicha Toshloq tuman sudi tomonidan 2022 yilning o‘tgan 9 oyi maobaynida tumanda odil sudlovning faoliyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabr kungi PQ-31-sonli Qaror ijrosini ta‘minlash borasida Toshloq tumanida amalga oshirilgan ishlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 sentyabrdagi PQ-373-sonli qarori ijrosini ta‘minlash borasidagi vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabr kungi “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qaroriga asosan Toshloq tumanida amalga oshirilayotgan ishlar, tumanda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” doirasida amalga oshirilgan ishlar, “Cahovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘larini sarflanishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022 yil 5 may kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 38-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tuman tibbiyot birlashmasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobotlar tinglandi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so‘ng qaror loyihasi deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

2022-12-21 17:55:28